

Termiz shahar tadbirkorlikka ko'maklashish markazi tomonidan "Biznes marafon" motivatsion treninglar loyihasi tashkil etildi



Termiz shahar tadbirkorlikka ko'maklashish markazi tomonidan "Biznes marafon" motivatsion treninglar loyihasi tashkil etildi

Bugun Termiz shahrida Yoshlar oyligi doirasida "Biznes marafoni" motivatsion treninglar loyihasi tashkil etildi.

Tadbirda shahardagi yosh tadbirkorlar ishtirokida "Hokim va yosh tadbirkorlar biznes uchrashuvi" mavzusida Termiz shahar hokimligida trening o'tkazildi.

"ZIF TEKSTIL" MCHJga tashrif buyurilib, tadbirkorlik ish faoliyati bilan yoshlarga master klass tashkillashtirildi. Shundan so'ng, "GLASS-EXPO" MCHJda "Muvaffaqiyatga erishish sirlari" mavzusida motivatsion trening o'tkazildi. Shuningdek, kun davomida loyiha doirasida yosh tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlar ko'rgazmasi

Termiz shahridagi Savdo-sanoat binosida o'tkazildi. Loyiha yakunida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan hamda tadbirkorlik faoliyatiga qiziquvchi ko'ngilli yoshlar bilan birgalikda shahardagi yirik, namunali tadbirkorlik ob'ektiga "Biznes sayohat" o'tkazildi.

